

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

**2026-YIL**  
**IYUN/6-SON, IV-QISM**



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google  
Scholar

ISSN  
INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afrovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi  
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari  
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash  
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari  
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti  
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi  
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari  
05.01.07 – Matematik modellashtirish  
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt  
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik  
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari  
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti  
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash  
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi  
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari  
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari  
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi  
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish  
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)  
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar  
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari  
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik  
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti  
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 – Makroiqtisodiyot  
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 – Ekonometrika va statistika  
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 – Marketing  
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 – Menejment  
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

EPOKSID-DIAN VA FENOLFORMALDEGID GIBRID BOG'LOVCHISI ASOSIDA YUQORI YEYILISH VA KORROZIYABARDOSH ANTIFRIKSION QOPLAMALAR YARATISH .....	10
<b>Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich</b>	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI BOSHQARISH VA TARTIBGA SOLISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	16
<b>Mamayusupova Dilovarxon, Maxmudaliyeva Manzuraxon, Toyirjonov Shokirjon</b>	
FRANSUZ, RUS VA O'ZBEK TILLARI SPORT TURIZMI TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY TADQIQI.....	20
<b>Ma'rupova Gulnoz</b>	
МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ХРАНЕНИЯ ПЛОДОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	24
<b>Муратов Абдулазиз Уктамович</b>	
DIGITAL TRANSFORMATION AND EMERGING TRENDS IN INFORMATION TECHNOLOGY.....	29
<b>Daminova Barno, Esmurodova Zarnigor, Boltayev Javohir, Kuziboyeva Lobar</b>	
FRANSUZ, RUS VA O'ZBEK TILLARI SPORT TURIZMI TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI.....	34
<b>Ma'rupova Gulnoz Umarjonovna</b>	
MINTAQA IQTISODIY O'SISHIDA XIZMATLAR SOHASI TARKIBIY O'ZGARISHLARINING STATISTIK TAHLILI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA .....	38
<b>Raximov Alisher Ibragimovich</b>	
KREDIT SKORINGIDA XULQ-ATVOR OMILLARINI BAHOLASH: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY QO'LLANILISHI .....	45
<b>BekmurodovAbbos Amiriddinovich</b>	
ECONOMETRIC INVESTIGATION OF AGRICULTURAL PRODUCTION ACTIVITIES IN KARAKALPAKSTAN REPUBLIC.....	49
<b>Makhambetova Uringul Reimbaevna</b>	
GETEROKOMPOZIT POLIMER QOPLAMALAR SIRTINING SHAKLLANISHI VA ULARNING PAXTA TOLALARI SIFATIGA TA'SIRINI TADQIQ ETISH .....	55
<b>Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich</b>	
GRADIENT BOOSTING (XGBOOST) VA TEGISHLILIK FUNKSIYALARIGA TAYANGAN STATISTIK KLASSIFIKATSIYA USULINING SOLISHTIRMA BAHOLANISHI .....	62
<b>Ergasheva Ma'mura Gayratovna</b>	
QURILISH SOHASIDA KICHIK VA YIRIK BIZNES SUBYEKTLARI INTEGRATSIYASI SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	69
<b>Axmedova Nilufar Shuxratovna</b>	
LARAVEL PLATFORMASIDA NEYROTARMOQLARNI QO'LLASH ORQALI FOYDALANUVCHI XATTI-HARAKATLARINI BASHORAT QILISH VA TAVSIYA TIZIMLARINI YARATISH .....	74
<b>Jo'rayev To'xtasin, Abdusattarov Odiljon, Boymatov Mexrojiddin, Maxkamov A'zimjon, Nabijonov Abduqodir</b>	
BEHIND THE 30% TARGET: A CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR WOMEN'S ACADEMIC LEADERSHIP IN UZBEK UNIVERSITIES .....	82
<b>Farida Nishanova</b>	
QURILISH SANOATIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR .....	87
<b>Abdullayev Axror Jaxbarovich</b>	
BALIQCILIKDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI .....	92
<b>Iskandar Yunusov</b>	



TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASHDAGI BANK KREDIT RISKLARINI PASAYTIRISH YO'LLARI.....	98
<b>Toymuxamedov Ibrohim Rixsiboyevich</b>	
KO'P KVARTIRALI UY-JOY FONDINI BOSHQARISHDA PROFESSIONAL XIZMAT KO'RSATISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMLARI .....	108
<b>Rahimov Qodir Ergashevich</b>	
НИЗКОУГЛЕРОДНАЯ ЭНЕРГЕТИКА КАК НАПРАВЛЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА .....	115
<b>Расулкулов Жамшидбек Акрамкулович</b>	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNING MOHIYATI VA ULARNING PRINSIPLARI .....	124
<b>Ubaydullayev Muxammadjon, Akbarov Diyorbek</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MEHMONXONA XIZMATLARINI AVTOMATLASHTIRISHNING IQTISODIY AFZALLIKLARI.....	128
<b>Raxmonova Nigina Anvarovna</b>	
EMPLOYEE WELL-BEING IN POST-REFORM UZBEKISTAN: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW AND RESEARCH AGENDA .....	132
<b>Farida Nishanova</b>	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MEKANIZMLARI .....	137
<b>Inobatov Abror Boshlarovich</b>	



# TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI

## Inobatov Abror Boshlarovich

Renessans ta'lim universiteti

“Moliya va kredit” kafedrasini mudiri

i.f.f.d., (PhD) dotsent

E-mail: [inobatov83@bk.ru](mailto:inobatov83@bk.ru)

ORCID: 0000-0003-0288-8798

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning asosiy usullari o'rganilgan. Tadqiqotda kreditlash, lizing, faktoring, investitsiya xizmatlari hamda davlat dasturlari orqali moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, tadbirkorlikni rivojlantirishda bank tizimining roli va uning samaradorligini oshirish yo'llari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** tadbirkorlik, tijorat banklari, bank-moliya tizimi, fintex, raqamli to'lovlar, universal QR-kod, muqobil skoring tizimi, kreditlash mexanizmi, moliyaviy resurslar, kichik va o'rta biznes, davlat qo'llab-quvvatlashi, “ochiq banking”, investitsiyalar, bank xizmatlari, moliyaviy inklyuzivlik.

**Аннотация.** В данной статье изучены основные методы финансовой поддержки предпринимательской деятельности со стороны коммерческих банков. В исследовании проанализированы механизмы финансовой поддержки посредством кредитования, лизинга, факторинга, инвестиционных услуг, а также государственных программ. Кроме того, научно обоснованы роль банковской системы в развитии предпринимательства и пути повышения её эффективности.

**Ключевые слова:** предпринимательство, коммерческие банки, банковско-финансовая система, финтех, цифровые платежи, универсальный QR-код, альтернативная система скоринга, механизм кредитования, финансовые ресурсы, малый и средний бизнес, государственная поддержка, «открытый банкинг», инвестиции, банковские услуги, финансовая инклюзия.

**Abstract.** This article examines the main methods of financial support for entrepreneurial activity provided by commercial banks. The study analyzes financial support mechanisms implemented through lending, leasing, factoring, investment services, and state programs. In addition, the role of the banking system in the development of entrepreneurship and ways to improve its efficiency are scientifically substantiated.

**Keywords:** entrepreneurship, commercial banks, banking and financial system, fintech, digital payments, universal QR code, alternative scoring system, lending mechanism, financial resources, small and medium-sized enterprises, state support, open banking, investments, banking services, financial inclusion.

## KIRISH

Global iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashda moliyaviy institutlarning roli tobora ortib bormoqda. Xususan, tijorat banklari iqtisodiyot subyektlarining moliyaviy ehtiyojlarini qondirish, pul mablag'larini samarali taqsimlash hamda investitsion faollikni rag'batlantirishda muhim vositachi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur muloqotda mamlakatda 40 dan ziyod elektron to'lov tashkilotlari faoliyat yuritayotgani va aholi mobil to'lov ilovalaridan keng foydalanayotgani qayd etildi. Shuningdek, 2025-yil 1-noyabrdan boshlab tadbirkorlar uchun barcha mobil to'lov ilovalari orqali hisob-kitob qilish imkonini beruvchi universal QR-kod tizimini joriy etish belgilandi.

Moliyaviy resurslar yo'nalishi bo'yicha 2026–2027-yillarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun jami 270 trillion so'm ajratilishi rejalashtirilgan bo'lib, shundan 250 trillion so'm tijorat banklari orqali kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishga yo'naltiriladi. Shu bilan birga, “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” tomonidan 4

trillion soʻmlik moliyaviy qoʻllab-quvvatlash choralari amalga oshiriladi.

Uchrashuvda bank tizimida skoring mexanizmlarini soddalashtirish natijasida 100 mingga yaqin tadbirkor kredit olgani, shuningdek, kredit tarixi oʻrtacha boʻlgan, ammo oʻsish salohiyatiga ega 500 mingta mijoz mavjudligi taʼkidlandi. 2026-yil 1-maydan boshlab esa muqobil skoring tizimi joriy etilib, tadbirkorlarning toʻlov qobiliyati soliq, kommunal toʻlovlar, tovar aylanmasi va eksport maʼlumotlari asosida baholanishi belgilandi.

Banklar faoliyatida xorijiy resurslarni jalb qilish ham muhim yoʻnalish sifatida qayd etildi. Joriy yilda banklar tadbirkorlik loyihalari uchun 6 milliard dollar resurs jalb qilgan boʻlsa, kelgusi yilda kichik va oʻrta biznes uchun qoʻshimcha 1 milliard dollar jalb qilish rejalashtirilgan.

Shuningdek, tadbirkorlarni qoʻllab-quvvatlashda imtiyozli kredit va kafillik mexanizmlari joriy etilmoqda. “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” tomonidan 10 milliard soʻmgacha imtiyozli kreditlar, 500 million soʻmgacha kreditlarni qayta moliyalashtirish hamda kafillik miqdorini kengaytirish choralari belgilangan.

Fintex sohasida esa besh yillik strategiya qabul qilinib, “ochiq banking” tizimini joriy etish orqali banklar, fintex kompaniyalar va startaplar oʻrtasida integratsiyalashgan ekotizim yaratish rejalashtirilgan. Natijada startap loyihalarga investitsiyalar hajmining 10 barobar oshishi kutilmoqda.

Soʻnggi yillarda moliya tizimida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bank xizmatlari sifatini oshirish bilan birga, kreditlash jarayonlarini tezlashtirish va risklarni baholash aniqligini yaxshilash imkonini bermoqda. Sunʼiy intellekt va katta maʼlumotlar (Big Data) tahlillaridan foydalanish moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayonida samaradorlikni sezilarli darajada oshirmoqda.

Mamlakat iqtisodiyotida tadbirkorlik subyektlarining ulushi ortib borayotgani bank tizimi orqali moliyalashtirishga boʻlgan talabni yanada kuchaytirmoqda. Ayniqsa, kichik va oʻrta biznesning rivojlanishi ish oʻrinlarini yaratish, innovatsiyalarni joriy etish va iqtisodiy oʻsishni taʼminlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtayi nazardan, tijorat banklari tomonidan koʻrsatilayotgan kredit, lizing va faktoring xizmatlari samaradorligini oshirish, shuningdek, ularning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga taʼsirini chuqur oʻrganish mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Bugungi global iqtisodiy noaniqlik va kuchayib borayotgan raqobat sharoitida tadbirkorlik iqtisodiy oʻsishning asosiy drayveri hisoblanadi. Kichik va oʻrta biznesning rivojlanishi yangi ish oʻrinlarini yaratish, innovatsiyalarni joriy etish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish orqali barqaror iqtisodiy oʻsishni taʼminlaydi.

Tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslarga boʻlgan ehtiyojini qondirishda tijorat banklari asosiy vositachi sifatida ishtirok etadi. Shu bois, banklar tomonidan taklif etiladigan moliyaviy instrumentlar – kreditlar, lizing va faktoring xizmatlari – hamda ularning samaradorligini oshirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qoʻllab-quvvatlash masalasi xalqaro va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng oʻrganilgan. Xalqaro tadqiqotlarda Robert Levine tomonidan bank tizimining iqtisodiy oʻsishga taʼsiri chuqur tahlil qilingan boʻlib, unda moliyaviy vositachilik iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida asoslab berilgan. Shuningdek, Ross Levine va boshqa olimlarning tadqiqotlarida banklar tomonidan moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash orqali tadbirkorlik faoliyatini ragʻbatlantirish masalalari yoritilgan [1, 2]. Michael Jensen va William Meckling ishlarida korxonalarni moliyalashtirishda agentlik muammolari hamda korporativ boshqaruvning ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan boʻlib, ushbu omillar bank kreditlash samaradorligiga ham bevosita taʼsir koʻrsatishi taʼkidlangan [3]. Shu bilan birga, Franklin Allen va Douglas Gale tadqiqotlarida moliya bozorlari hamda bank tizimi barqarorligining tadbirkorlik faoliyatiga taʼsiri tahlil qilingan. Lizing va faktoring xizmatlarining ahamiyati Asli Demirgüç-Kunt va Thorsten Beck ishlarida keng yoritilgan boʻlib, ular kichik va oʻrta biznesni moliyalashtirishda mazkur moliyaviy instrumentlarning muhim oʻrin tutishini taʼkidlaydilar [4, 5].

Mahalliy olimlar tadqiqotlarida esa Oʻzbekiston bank tizimida tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlashning oʻziga xos jihatlari tahlil qilingan. Jumladan, A. Vaxobov, Sh. Shodmonov va U. Gʻafurov ishlarida tijorat banklari faoliyati, moliyalashtirish mexanizmlari hamda iqtisodiy islohotlar sharoitida bank tizimining roli keng yoritilgan [9]. Shuningdek, B. Berdiyev va N. Yusupov tadqiqotlarida kichik biznesni moliyaviy qoʻllab-quvvatlash, kreditlash tizimini takomillashtirish hamda bank xizmatlarini rivojlantirish masalalari koʻrib chiqilgan [10]. Biroq tahlillar shuni koʻrsatadiki, mavjud ilmiy tadqiqotlarda moliyaviy instrumentlarning kompleks taʼsiri, ayniqsa, ularning zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uygʻun holda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishdagi oʻrni yetarli darajada chuqur tadqiq etilmagan. Shu bois mazkur yoʻnalishda qoʻshimcha ilmiy izlanishlar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish mexanizmlarini o'rganishda ilmiy abstraksiyalash, taqqoslash, tizimli tahlil, statistik tahlil va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tijorat banklarining kreditlash, lizing, faktoring, investitsiya xizmatlari hamda davlat qo'llab-quvvatlashi asosidagi moliyalashtirish mexanizmlari tahlil qilindi. Shuningdek, 2022–2025-yillarda banklar kesimida tadbirkorlikka ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bo'yicha statistik ko'rsatkichlar o'rganildi. Tadqiqotda bank xizmatlari sifati, raqamli texnologiyalar, skoring tizimi va moliyaviy inklyuzivlikning tadbirkorlikni rivojlantirishdagi ta'siri baholandi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchi moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, jamg'armalarni iqtisodiyotga jalb etish hamda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ishonch darajasi past bo'lgan sharoitda aholi o'z mablag'larini banklarda saqlashga yetarlicha moyil bo'lmaydi. Bu esa moliyaviy resurslar aylanmasining cheklanishiga olib keladi.

Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning asosiy metodologiyasi bank tizimi samaradorligini oshirish, mavjud moliyaviy imkoniyatlardan to'liq foydalanish, tadbirkorlik subyektlariga zarur moliyaviy ko'mak ko'rsatish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar salmog'ini ko'paytirish hamda tizimda sog'lom raqobat muhitini shakllantirish bilan bevosita bog'liq. Mazkur yondashuv aholiga va tadbirkorlik subyektlariga sifatli bank xizmatlarini ko'rsatishga qaratilgan islohotlar majmuasi sifatida namoyon bo'ladi.

Fikrimizcha, tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash samaradorligini oshirishda bank tizimidagi davlat ulushini bosqichma-bosqich xususiyashtirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayon, eng avvalo, banklar faoliyatini sifat jihatidan transformatsiya qilish, samarali korporativ boshqaruv mexanizmlarini joriy etish hamda moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bank aktivlari sifatini yaxshilash, xususan, muammoli aktivlar ulushini kamaytirish tijorat banklarining kreditlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa, o'z navbatida, tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash ko'lamining oshishiga zamin yaratadi.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda tijorat banklari xizmatlarining sifati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bank xizmatlarining yuqori darajada tashkil etilishi tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy resurslar bilan o'z vaqtida, qulav va samarali ta'minlash imkonini yaratadi (1-rasm).



1-rasm. Tijorat banki tomonidan xizmatlar sifati oshirish.

Tadbirkorlar uchun bank xizmatlari sifati moliyaviy xizmatlarning tezkorligi, ishonchliligi, qulayligi, xavfsizligi hamda mijoz ehtiyojlariga mosligi bilan belgilanadi. Ayniqsa, tadbirkorlik subyektlari uchun kredit olish jarayonini soddalashtirish muhim ahamiyatga ega. Bunda hujjatlar sonini kamaytirish, onlayn ariza topshirish tizimini joriy etish hamda kredit bo'yicha qaror qabul qilish muddatini qisqartirish bank xizmatlari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tijorat banklari yuqoridagi yo'nalishlarda faoliyatini izchil tashkil etsa, tadbirkorlar moliyaviy resurslarga qisqa muddatda ega bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa ularning investitsion faolligini oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini kengaytirish va iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi (2-rasm).



2-rasm. Tijorat banki tomonidan tadbirkorlarning ehtiyoji turlicha bo'lgan xizmatlari sifatini oshirish.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, xizmat ko'rsatishning milliy modelini shakllantirish, xususan, minoritar aksiyadorlar institutini rivojlantirish va ular orqali bozor mexanizmlarining samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda bank xodimlarini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish ham ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, bank tizimi faoliyatining shaffofligi va samaradorligini oshirish maqsadida buxgalteriya hisobi hamda moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar, jumladan, IFRS talablari asosida yuritish amaliyotini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa investorlar ishonchini mustahkamlash, banklar faoliyatining ochiqligi va raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval  
Aholining bank tizimiga ishonchini oshirish omillari<sup>1</sup>

№	Yo'nalish	Mazmuni	Kutilgan natija
1	Shaffoflikni ta'minlash	IFRS asosida hisobot yuritish, ochiq ma'lumotlar berish	Aholining banklarga ishonchi oshadi
2	Depozitlar xavfsizligi	Kafolat tizimini kuchaytirish, davlat kafolati	Omonatlar hajmi oshadi
3	Xizmatlar sifatini oshirish	Tezkor xizmat, mijozlarga qulaylik	Mijozlar soni ko'payadi
4	Moliyaviy savodxonlik	Ta'lim dasturlari, ommaviy tushuntirish ishlari	Aholining bank xizmatlaridan foydalanishi oshadi

1 Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan yaratilgan.



5	Raqamli texnologiyalar	Mobil bank, onlayn to'lovlar, xavfsizlik	Bank xizmatlariga ishonch va qulaylik oshadi
6	Korporativ boshqaruv	Samarali boshqaruv, risklarni kamaytirish	Bank barqarorligi ta'minlanadi
7	Davlat ulushini kamaytirish	Xususiylashtirish, raqobat muhitini kuchaytirish	Bank tizimi samaradorligi oshadi

Tijorat banklari kesimida o'tkazilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda davlat ishtirokidagi banklar yetakchi o'rinni egallamoqda. Shu bilan birga, xususiy banklar faoliyatining izchil kengayib borayotgani bank xizmatlari bozorida sog'lom raqobat muhitining shakllanishiga, xizmatlar sifati va samaradorligining oshishiga hamda mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar ko'lamining yanada kengayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

## 2-jadval

### 2022–2025 yillarda barcha banklar kesimida tadbirkorlikka xizmatlar hajmi barqaror o'sish tendensiyasi<sup>2</sup>

Bank nomi	2022 (trln so'm)	2023 (trln so'm)	2024 (trln so'm)	2025 (trln so'm)	Asosiy yo'nalish
Agrobank	18	22	25	32	Qishloq xo'jaligi, kichik biznes
Asaka bank	15	18	22	28	Sanoat va ishlab chiqarish
Ipoteka bank	12	16	20	26	Qurilish va xizmatlar
Xalq banki	10	13	16	21	Mikromoliya va kichik biznes
Xususiy banklar (jami)	25	30	40	55	Savdo, xizmatlar, startaplar

2022-2025-yillar davomida tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etdi. Xususan, "Agrobank" misolida 2022-yilda xizmatlar hajmi 18 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 32 trln so'mga yetdi. Natijada, mazkur davrda xizmatlar hajmi 77,8 foizga oshib, bankning tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasidagi faoliyati izchil rivojlanayotganligini ko'rsatdi [11].

Shuningdek, "Asaka bank" tomonidan tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi ham sezilarli darajada oshdi. Jumladan, 2022-yilda 15 trln so'mni tashkil etgan xizmatlar hajmi 2025-yilda 28 trln so'mga yetdi. Natijada, ushbu ko'rsatkich 86,7 foizga o'sib, bank faoliyatining samaradorligi va bozor talablariga mos ravishda kengayib borayotganligini tasdiqladi.


"Ipoteka bank" faoliyati tahlili ham ijobiy natijalarni ko'rsatmoqda. Mazkur bankda 2022-yilda 12 trln so'mni tashkil etgan xizmatlar hajmi 2025-yilda 26 trln so'mga yetgan. Natijada, xizmatlar hajmi 116,7 foizga oshib, bankning tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashdagi faolligi va xizmatlar ko'lamining kengayib borayotganligini namoyon etdi.

"Xalq banki" misolida ham xizmatlar hajmining barqaror o'sishi kuzatildi. Xususan, 2022-yilda 10 trln so'mni tashkil etgan xizmatlar hajmi 2025-yilda 21 trln so'mga yetdi. Natijada, ushbu ko'rsatkich 110 foizga oshib, bank faoliyatining samarali rivojlanayotganligi hamda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati yuksalib borayotganligini ko'rsatdi.

Xususiy banklar faoliyati tahlili ham yuqori o'sish sur'atlarini namoyon etdi. Jumladan, 2022-yilda xizmatlar hajmi 25 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda ushbu ko'rsatkich 55 trln so'mga yetdi. Natijada, xizmatlar hajmi 120 foizga oshib, xususiy banklarning moliyaviy xizmatlar bozorida o'rni mustahkamlanib borayotganligini hamda raqobat muhitining yanada rivojlanayotganligini tasdiqladi.

Umuman olganda, 2022-2025-yillar davomida mamlakat bank tizimida tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi barqaror va yuqori o'sish sur'atlarini namoyon etdi. Tahlil qilingan "Agrobank", "Asaka bank", "Ipoteka bank", "Xalq banki" hamda xususiy banklar faoliyatida xizmatlar hajmining izchil ortib borishi kuzatildi. Mazkur natijalar bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini, tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining takomillashayotganligini hamda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qilayotganligini ko'rsatadi (3-rasm).

2 Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan yaratilgan.



**3-rasm. 2022–2025 yillar davomida barcha banklar kesimida tadbirkorlikka ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi.**

Xususan, davlat va xususiy banklar kesimida tadbirkorlik subyektlariga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining ayrim hollarda ikki barobar va undan yuqori sur‘atlarda o‘sgani kuzatildi. Mazkur holat bank tizimida tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi ortib borayotganligini hamda moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengayib borayotganligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tahlil natijalari banklar tomonidan tadbirkorlik subyektlariga ko‘rsatilayotgan xizmatlar hajmida barqaror ijobiy dinamika shakllanganligini tasdiqlaydi. Shuningdek, moliyaviy xizmatlar qamrovining kengayishi, bank xizmatlari sifati va samaradorligining oshishi hamda tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining takomillashuvi kuzatilmoqda. Bu esa bank tizimining iqtisodiyotda xususiy sektor faolligini rag‘batlantirish, investitsion muhitni yaxshilash va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashdagi muhim o‘rnini yanada mustahkamlamoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, jahon amaliyotida ham, mamlakatimiz iqtisodiyotida ham tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda tijorat banklari yetakchi moliyaviy institut sifatida muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Bank tizimi orqali moliyaviy resurslarni jalb qilish, ularni samarali qayta taqsimlash hamda iqtisodiyotning real sektoriga yo‘naltirish jarayonlari tadbirkorlik faoliyatining barqaror rivojlanishini ta‘minlaydi.

So‘nggi yillarda bank tizimida raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi natijasida moliyaviy xizmatlarning tezkorligi, qulayligi va shaffofligi sezilarli darajada oshdi. Xususan, onlayn kreditlash tizimlari, avtomatlashtirilgan skoring mexanizmlari hamda Big Data texnologiyalariga asoslangan tahliliy yondashuvlar kredit qarorlarini qabul qilish jarayonini optimallashtirib, moliyaviy risklarni samarali boshqarishga xizmat qilmoqda. Natijada tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari kengayib, biznes faoliyatini rivojlantirish uchun yanada qulay sharoitlar yaratilmoqda.

Ilmiy adabiyotlar tahlili moliyaviy vositachilik darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish sur‘atlari nisbatan barqaror va yuqori bo‘lishini tasdiqlaydi. Shu nuqtayi nazardan, bank tizimi samaradorligi investitsion muhitning jozibadorligi hamda tadbirkorlik faolligining oshishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Amaliy tahlillar natijalari tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilayotgan kredit, lizing va faktoring xizmatlari ko‘lami izchil kengayib borayotganligini ko‘rsatmoqda. Bu esa tadbirkorlik faoliyatining moliyaviy asoslarini mustahkamlashga va iqtisodiy faollikni rag‘batlantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, kredit portfeli sifatini yanada yaxshilash va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash maqsadida risk-menejment tizimlarini doimiy ravishda takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bank tizimida xususiy sektor ishtirokining ortib borishi va sog‘lom raqobat muhitining shakllanishi xizmatlar



sifati, tezkorligi hamda mijozlarga yo'naltirilgan yondashuvning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa tadbirkorlar uchun yanada qulay moliyaviy muhit yaratish, moliyaviy xizmatlar qamrovini kengaytirish va iqtisodiyotda bozor mexanizmlarining samarali ishlashini ta'minlash imkonini bermoqda.

Shuningdek, banklar va fintex kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlikning rivojlanishi moliyaviy xizmatlar bozorini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Mazkur integratsiya kreditlash jarayonlarini avtomatlashtirish, tranzaksiya xarajatlarini qisqartirish, innovatsion moliyaviy mahsulotlarni joriy etish hamda moliyaviy inklyuzivlik darajasini oshirishga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, tijorat banklari faoliyatini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish va innovatsion moliyaviy yechimlarni rivojlantirish orqali tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Bu esa milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, investitsion jozibadorligining ortishi hamda xalqaro raqobatbardoshligining mustahkamlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Takliflar sifatida tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan raqamli bank xizmatlarini yanada kengaytirish, onlayn kreditlash tizimlarini to'liq avtomatlashtirish va masofaviy moliyaviy xizmatlar platformalarini takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash maqsadida imtiyozli kredit liniyalari, davlat kafolati asosidagi moliyalashtirish mexanizmlari hamda innovatsion moliyaviy mahsulotlar ulushini oshirish tavsiya etiladi. Shuningdek, kredit risklarini baholashda sun'iy intellekt, Big Data va zamonaviy skoring texnologiyalaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish, kredit monitoringi jarayonlarini kuchaytirish hamda risk-menejment tizimini takomillashtirish orqali kredit portfeli sifatini yanada yaxshilash mumkin. Bundan tashqari, banklar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini rivojlantirish, bank va fintex kompaniyalari hamkorligini kengaytirish, hududlarda raqamli infratuzilma hamda bank xizmatlari qamrovini kengaytirish orqali tadbirkorlar uchun teng va qulay moliyaviy imkoniyatlarni yaratish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, korporativ boshqaruv sifatini oshirish va bank faoliyatining samaradorligini yanada kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni izchil davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Levine R. Finance and Growth: Theory and Evidence // Journal of Economic Literature. – 2005.
2. Levine R. Bank-Based or Market-Based Financial Systems: Which is Better? // Journal of Financial Intermediation. – 2002.
3. Jensen M.C., Meckling W.H. Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs and Ownership Structure // Journal of Financial Economics. – 1976.
4. Allen F., Gale D. Comparing Financial Systems. – Cambridge: MIT Press, 2000.
5. Demirgüç-Kunt A., Beck T. Financial Institutions and Markets Across Countries and over Time. – Washington, D.C.: World Bank, 2008.
6. Financial Stability Board (FSB). Global Financial Stability Report. – Basel, 2023.
7. World Bank. Global Financial Development Report. – Washington, D.C., 2022.
8. International Monetary Fund (IMF). World Economic Outlook. – Washington, D.C., 2023.
9. Vaxobov A., Shodmonov Sh., G'afurov U. Moliya va kredit. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
10. Berdiev B., Yusupov N. Tijorat banklari va kichik biznesni moliyalashtirish. – Toshkent, 2020.
11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Yillik hisobotlar (2022-2025-yy.). – Toshkent.

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

## 2026. № 6

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)